



**O'SMIRLARDA IJTIMOYIY-EMOTSIONAL KOMPETENSIYALARNI
RIVOJLANTIRISH ASOSIDA FIDOYILIK XULQ-ATVORINI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Axrarova Shoirra Batirovna

Alfraganus University "pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

axrorova1501@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smirlik davrida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishning shaxs kamolotidagi o'zni hamda ularning fidoyilik xulq-atvorini shakllantirishdagi pedagogik va psixologik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning asosiy tarkibiy qismlari – o'zini anglash, emotsiyalarni boshqarish, empatiya, samarali muloqot, hamkorlik va mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalari zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan. Shuningdek, ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o'smirlarda prosotsial va fidoyilikka yo'naltirilgan xulq-atvorni shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari asoslab berilgan. Muallif tomonidan ta'lim jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan metodik yondashuvlar hamda ularning amaliy samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-emotsional kompetensiya, fidoyilik, o'smirlik, emotsional intellekt, empatiya, prosotsial xulq-atvor, pedagogik texnologiyalar, shaxs rivojlanishi.

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF FOSTERING
SELFLESS BEHAVIOR IN ADOLESCENTS THROUGH THE DEVELOPMENT
OF SOCIAL-EMOTIONAL COMPETENCIES**

Akhrarova Shoirra Batirovna

A lecturer of the Department of Pedagogy at Alfraganus University

axrorova1501@gmail.com

Abstract: This article examines the role of developing social-emotional competencies in the personal development of adolescents and highlights their pedagogical and psychological significance in fostering selfless behavior. Based on contemporary scientific approaches, the study explores the core components of social-emotional competencies, including self-awareness, emotion regulation, empathy, effective communication, collaboration, and responsible decision-making. Furthermore, it



substantiates the pedagogical and psychological mechanisms through which the development of these competencies contributes to the formation of prosocial and selfless behavior among adolescents. The article also analyzes methodological approaches applicable in educational practice and discusses their practical effectiveness.

Keywords: social-emotional competence, selfless behavior, adolescence, emotional intelligence, empathy, prosocial behavior, educational technologies, personality development.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ САМООТВЕРЖЕННОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

Ахрарова Шоира Батыровна

Преподаватель кафедры «Педагогика» Университета Альфраганус

axrorova1501@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируются роль развития социально-эмоциональных компетенций в личностном становлении подростков, а также их педагогическое и психологическое значение в формировании самоотверженного поведения. На основе современных научных подходов раскрыты основные компоненты социально-эмоциональных компетенций, включая самосознание, управление эмоциями, эмпатию, эффективную коммуникацию, сотрудничество и ответственное принятие решений. Кроме того, обоснованы педагогико-психологические механизмы формирования у подростков просоциального и самоотверженного поведения посредством развития данных компетенций. Проанализированы методические подходы, которые могут быть использованы в образовательном процессе, а также оценена их практическая эффективность.

Ключевые слова: социально-эмоциональная компетентность, самоотверженность, подростковый возраст, эмоциональный интеллект, эмпатия, просоциальное поведение, педагогические технологии, развитие личности.

KIRISH



Rivojlanayotgan mamlakatlarning global muammolaridan biri ta'lim tizimida nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviy fazilatlarga ega, ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan va jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo'sha oladigan shaxsni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Mazkur maqsadga erishishda o'smirlilik davri alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu yosh bosqichida shaxsning qadriyatlar tizimi, axloqiy qarashlari, emotsional barqarorligi hamda boshqalar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyati faol shakllanadi.

So'nggi yillarda xalqaro tadqiqotlarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu kompetensiyalar o'smirlarning o'z emotsiyalarini boshqarishi, atrofdagilarni tushunishi, konstruktiv muloqot o'rnatishi va murakkab ijtimoiy vaziyatlarda mas'uliyatli qaror qabul qilishiga xizmat qiladi. Shu bois ta'lim jarayonida ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash nafaqat psixologik farovonlikni, balki prosotsial va fidoyilikka yo'naltirilgan xulq-atvorni shakllantirishning ham muhim sharti hisoblanadi.

Fidoyilik shaxsning jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'ya olishi, boshqalarga ko'mak berishga tayyorligi hamda ijtimoiy mas'uliyatni ongli ravishda namoyon etishi bilan tavsiflanadi. Mazkur sifatning shakllanishi emotsional intellekt, empatiya, hamkorlik va axloqiy qadriyatlarning rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish va fidoyilik xulq-atvorini shakllantirish o'zaro integratsiyalashgan pedagogik jarayon sifatida qaralishi lozim.

Mazkur maqolaning maqsadi o'smirlarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish orqali fidoyilik xulq-atvorini shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ushbu jarayonda qo'llaniladigan samarali yondashuvlarni asoslab berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi so'nggi yigirma yil davomida pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti yo'nalishlarida eng dolzarb ilmiy masalalardan biriga aylandi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ushbu kompetensiyalar shaxsning akademik muvaffaqiyati, psixologik farovonligi, ijtimoiy moslashuvi va fuqarolik faolligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan



birga, ijtimoiy-emotsional rivojlanishning prosotsial va fidoyilikka yo'naltirilgan xulq-atvor shakllanishiga ta'siri tobora ko'proq ilmiy qiziqish uyg'otmoqda.

Ijtimoiy-emotsional kompetensiya tushunchasining ilmiy asoslari CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada tizimli ravishda yoritilgan. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar beshta asosiy komponentni o'z ichiga oladi: o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlarni samarali boshqarish hamda mas'uliyatli qaror qabul qilish. Ushbu komponentlar shaxsning nafaqat individual rivojlanishi, balki jamiyat bilan konstruktiv munosabatlar o'rnatishida ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

D. Goleman tomonidan ilgari surilgan emotsional intellekt nazariyasida ham shaxsning emotsiyalarni anglash va boshqarish qobiliyati muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri sifatida talqin etiladi. Olimning fikricha, yuqori emotsional intellektga ega bo'lgan shaxslar boshqalarning hissiy holatini chuqurroq tushunadi, samarali muloqotga kirishadi va murakkab ijtimoiy vaziyatlarda konstruktiv qarorlar qabul qila oladi. Mazkur xususiyatlar prosotsial xulq-atvor va fidoyilik sifatlarining shakllanishi uchun muhim psixologik zamin yaratadi.

Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi shaxs xulq-atvorining shakllanishida kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy tajribaning ahamiyatini asoslab beradi. Mazkur nazariyaga ko'ra, o'smirlar kattalar va tengdoshlari namunasini kuzatish orqali nafaqat muayyan xatti-harakatlarni, balki ularning ortida yotgan qadriyatlar va motivlarni ham o'zlashtiradilar. Shu sababli ta'lim muhitida pedagogning shaxsiy namunasi fidoyilik xulq-atvorini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Deci va Ryanning o'z-o'zini belgilash (Self-Determination Theory) nazariyasi esa prosotsial faoliyatning barqarorligi tashqi rag'batlantirishdan ko'ra ichki motivatsiya bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Olimlarning ta'kidlashicha, shaxsda avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy tegishlilik ehtiyojlari qondirilganda, uning ijtimoiy foydali faoliyatga bo'lgan ichki ehtiyoji kuchayadi. Demak, fidoyilikni majburiy topshiriqlar orqali emas, balki ichki motivlarni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik muhit orqali rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.



Prosotsial xulq-atvorni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarda Eisenberg va hamkorlari empatiya, axloqiy tafakkur hamda ijtimoiy mas'uliyat hissining o'zaro bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslaganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, boshqalarning hissiy holatini anglay oladigan o'smirlar yordam ko'rsatish, hamkorlik qilish va ijtimoiy mas'uliyatni namoyon etishga ko'proq moyil bo'ladilar.

Shuningdek, Durlak va hamkorlari tomonidan o'tkazilgan ko'plab eksperimental tadqiqotlar ijtimoiy-emotsional rivojlantirish dasturlarining o'quvchilarning akademik natijalari, emotsional barqarorligi hamda prosotsial xulq-atvoriga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. Tadqiqotchilar ijtimoiy-emotsional ta'lim dasturlarida muntazam ishtirok etgan o'quvchilarda tajovuzkorlik darajasi pasayishi, o'zaro hamkorlik va mas'uliyat hissi esa ortishini qayd etganlar.

Milliy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ham yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, fuqarolik pozitsiyasi, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyatida fidoyilik xulq-atvori ko'proq ma'naviy tarbiya yoki axloqiy fazilat sifatida yoritilgan bo'lib, uni ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar tizimi bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga oid ilmiy ishlanmalar yetarli emas. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning alohida komponentlari — empatiya, emotsional intellekt, kommunikativ kompetensiya yoki prosotsial xulq-atvor chuqur tadqiq etilgan bo'lsa-da, aynan ushbu komponentlarning o'zaro integratsiyasi asosida fidoyilik xulq-atvorini shakllantirishning yaxlit pedagogik modeli hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar va fidoyilik xulq-atvori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan hamda faoliyatga asoslangan yondashuvlar integratsiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Muallifning fikricha, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni tizimli ravishda rivojlantirish o'smirlarda nafaqat individual psixologik barqarorlikni, balki jamiyat manfaatlariga yo'naltirilgan barqaror fidoyilik xulq-atvorini ham shakllantirishning asosiy pedagogik sharti hisoblanadi.



TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o'smirlarda fidoyilik xulq-atvorini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini aniqlashga qaratilgan nazariy-tahliliy tadqiqot hisoblanadi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, aksiologik va tizimli yondashuvlar tashkil etdi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi o'smir shaxsining ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ko'p qirrali pedagogik jarayon sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning umumiy va maxsus metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi. Xususan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda interpretatsiya qilish metodlari yordamida mahalliy va xorijiy olimlarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar, emotsional intellekt, prosotsial xulq-atvor va fidoyilikka oid ilmiy qarashlari o'rganildi. Nazariy tahlilda CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning), OECD hamda UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-emotsional ta'lim konsepsiyalari, shuningdek D. Goleman, A. Bandura, E. Deci, R. Ryan, M. Eisenberg, J. Durlak, R. Weissberg va boshqa olimlarning ilmiy ishlari metodologik manba sifatida xizmat qildi. Ushbu manbalar asosida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning tarkibiy tuzilishi hamda ularning fidoyilik xulq-atvoriga ta'sir etuvchi psixologik mexanizmlari aniqlashtirildi. Tadqiqotning nazariy modeli ishlab chiqishda strukturaviy-funksional tahlil usulidan foydalanildi. Bunda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar beshta asosiy komponent — o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlarni boshqarish va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalari sifatida tizimlashtirildi. Har bir komponentning fidoyilik xulq-atvorini shakllantirishdagi funksional o'rni alohida tahlil qilindi. Shuningdek, kontent-tahlil metodi yordamida zamonaviy ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilib, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishga oid asosiy ilmiy yo'nalishlar hamda mavjud muammolar aniqlashtirildi. Olingan ma'lumotlar asosida fidoyilik xulq-atvorini rivojlantirishning konseptual modeli ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqotda pedagogik hodisalarni baholashda mantiqiy tahlil, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, qiyosiy tahlil hamda ilmiy modellashtirish metodlari



qo'llanildi. Bu metodlar o'smirlarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish va fidoyilik xulq-atvorini shakllantirish o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini ilmiy asoslash imkonini berdi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni alohida psixologik sifatlar sifatida emas, balki yagona pedagogik tizimning o'zaro bog'liq elementlari sifatida rivojlantirish samaraliroq natija beradi. Aynan shu yondashuv o'smirlarda ijtimoiy mas'uliyat, empatiya, hamkorlik va fidoyilik xulq-atvorining barqaror shakllanishini ta'minlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'smirlarda fidoyilik xulq-atvorining shakllanishi alohida bir pedagogik ta'sir natijasi emas, balki ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning bosqichma-bosqich rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab integrativ jarayondir. Ushbu jarayon shaxsning emotsional, kognitiv, motivatsion va ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlarining o'zaro uyg'unlashuvi asosida amalga oshadi.

Tahlil natijalari ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar tarkibidagi har bir komponentning fidoyilik xulq-atvorini rivojlantirishda o'ziga xos funksional vazifani bajarishini ko'rsatdi. Jumladan, **o'zini anglash** o'smirning shaxsiy qadriyatlarini aniqlash, o'z imkoniyatlarini baholash va ijtimoiy mas'uliyatni anglashga xizmat qiladi. O'zini anglash darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar boshqalarga yordam ko'rsatishni tashqi talab emas, balki shaxsiy e'tiqod sifatida qabul qiladilar.

O'zini boshqarish kompetensiyasi esa murakkab emotsional vaziyatlarda impulsiv reaksiyalarni cheklash, stress omillariga bardoshlilikni oshirish hamda uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyatni davom ettirish imkonini beradi. Aynan mazkur kompetensiya fidoyilikning muhim belgilaridan biri bo'lgan qat'iyatlilik va mas'uliyatni shakllantiradi.

Ijtimoiy anglash va empatiya komponentlari boshqalarning ehtiyojlarini anglash, ularning hissiy holatini tushunish hamda yordam ko'rsatishga ichki ehtiyojning yuzaga kelishida asosiy psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, empatiya rivojlangan o'smirlar tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish va ijtimoiy foydali faoliyatda faolroq ishtirok etishga moyildirlar.



Munosabatlarni boshqarish kompetensiyasi esa jamoaviy faoliyatning samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. O'smirning muloqot madaniyati, fikr almashish ko'nikmalari, faol tinglash, nizolarni konstruktiv hal qilish hamda o'zaro ishonchni shakllantirish qobiliyati fidoyilikning real xulq-atvorda namoyon bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasi esa fidoyilik xulq-atvorining yakuniy natijasini belgilaydi. Mazkur kompetensiya rivojlangan o'smir shaxsiy manfaat va jamoa manfaatini muvozanatli baholay oladi, harakatlarining ehtimoliy oqibatlarini oldindan tahlil qiladi hamda axloqiy me'yorlarga mos qaror qabul qiladi. Natijada yordam ko'rsatish, ko'ngillilik faoliyatida ishtirok etish, umumiy vazifalarni mas'uliyat bilan bajarish kabi prosotsial xatti-harakatlar barqarorlashadi.

Nazariy tahlillar asosida **fidoyilik xulq-atvorini shakllantirishning konseptual modeli** ishlab chiqildi (1-jadval). Mazkur modelga ko'ra, jarayon quyidagi ketma-ket bosqichlarda amalga oshadi:

1-jadval

Bosqich	Asosiy komponent	Pedagogik-psixologik mazmuni	Kutilayotgan natija
I bosqich	O'zini anglash	O'quvchining o'z his-tuyg'ulari, qadriyatlari, ehtiyojlari va shaxsiy imkoniyatlarini anglashini rivojlantirish	Shaxsiy mas'uliyat va o'zini baholash ko'nikmasi shakllanadi
II bosqich	O'zini boshqarish	Emotsiyalarni nazorat qilish, stressni boshqarish, impulsiv xatti-harakatlarni kamaytirish	Emotsional barqarorlik va o'zini nazorat qilish rivojlanadi
III bosqich	Ijtimoiy anglash (empatiya)	Boshqalarning hissiy holatini tushunish, hamdardlik va insonparvarlik munosabatlarini rivojlantirish	Empatiya va ijtimoiy mas'uliyat kuchayadi
IV bosqich	Munosabatlarni boshqarish	Samarali muloqot, hamkorlik, nizolarni konstruktiv hal qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish	Jamoaviy hamkorlik va ijtimoiy faollik ortadi
V bosqich	Mas'uliyatli qaror qabul qilish	Axloqiy me'yorlar va ijtimoiy manfaatlarni hisobga olgan	Prosotsial motivatsiya va ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlik yuzaga keladi



Bosqich	Asosiy komponent	Pedagogik-psixologik mazmuni	Kutilayotgan natija
		holda ongli qaror qabul qilishni shakllantirish	
Yakuniy natija	Fidoyilik xulq-atvori	Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning integratsiyasi natijasida jamiyat manfaatiga yo'naltirilgan barqaror xulq-atvor shakllanadi	O'quvchining ijtimoiy mas'uliyati, tashabbuskorligi, ko'ngillilik faoliyati va boshqalarga yordam ko'rsatishga tayyorligi rivojlanadi

Mazkur modelning muhim jihati shundaki, unda fidoyilik faqat axloqiy sifat sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy-emotsional rivojlanishining tabiiy natijasi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, tahlillar ta'lim muassasasida ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun uchta asosiy pedagogik shart mavjudligini ko'rsatdi:

- psixologik xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratish;
- o'quvchilarni real ijtimoiy faoliyat hamda ko'ngillilik loyihalariga jalb etish;
- refleksiya va muntazam diagnostika asosida individual rivojlanishni monitoring qilish.

Aynan mazkur uch omil o'zaro uyg'unlashgandagina ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar barqaror shakllanadi va ular fidoyilik xulq-atvorining ichki motivatsiyaga asoslangan sifatiga aylanadi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan konseptual yondashuv ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish hamda ijtimoiy-emotsional ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda metodik asos sifatida qo'llanishi mumkin.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari o'smirlarda fidoyilik xulq-atvorini shakllantirish ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni izchil va tizimli rivojlantirish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. O'smirlik davrida o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy anglash, samarali muloqot va mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarining rivojlanishi shaxsning prosotsial faoliyatga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirib, jamiyat manfaatiga yo'naltirilgan barqaror xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi.



Ilmiy adabiyotlar tahlili hamda nazariy umumlashtirishlar shuni tasdiqladiki, fidoyilik xulq-atvori alohida tarbiyaviy ta'sir natijasi emas, balki shaxsning emotsional, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishining integrallashgan mahsulidir. Shu bois ta'lim jarayonida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning nafaqat shaxsiy kamolotini, balki ularning fuqarolik mas'uliyati, hamkorlik madaniyati va ijtimoiy faolligini ham rivojlantiradi. Tadqiqot davomida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar va fidoyilik xulq-atvori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik konseptual jihatdan asoslanib, **“Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar - Prosotsial motivatsiya - Fidoyilik xulq-atvori”** modeli taklif etildi. Mazkur model o'smirlarda fidoyilikni shakllantirish jarayonini tizimli tashkil etish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish uchun ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar o'smirlarda fidoyilik xulq-atvorini shakllantirishning muhim pedagogik-psixologik omili hisoblanadi.
2. Empatiya, emotsional intellekt, hamkorlik va mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarining rivojlanishi prosotsial motivatsiyani kuchaytiradi hamda ijtimoiy foydali faoliyatga ichki ehtiyojni shakllantiradi.
3. Psixologik xavfsiz ta'lim muhiti, pedagog va ota-onalarning ijobiy namunasi, shuningdek o'quvchilarni ko'ngillilik va jamoaviy loyihalarga jalb etish fidoyilik xulq-atvorini rivojlantirishning eng muhim pedagogik shartlari hisoblanadi.
4. Taklif etilgan konseptual model va metodik yondashuvlardan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari hamda pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida samarali foydalanish mumkin.

Kelgusida ushbu modelning amaliy samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali baholash, turli yosh guruhlari va ta'lim bosqichlarida qo'llash imkoniyatlarini o'rganish, shuningdek, raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni 2020-yil 23-sentabrdagi 637-sonli.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi 2024-yil 1-fevraldagi 901-sonli.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 14 avgustdagi PF-3907-sonli Qarori.
5. Sh.Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz" O'zbekiston" NMIU , 2018
6. Karimova V. M "Ijtimoiy psixologiya", Toshkent: TDPU, 2012
7. Seligman M. "Pozitiv psixologiya" 2006.
8. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova , M.K.Shirinov , S.Hafizov "Umumiy pedagogika" Darslik "Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.
9. Маслоу А. Мотивация и личность. – Санкт-Петербург: Питер, 2019. – 400 с.
10. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'quvchisi psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 180 b.
11. Ergashev I. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 144 b.
12. Эльконин Д.Б. Психология развития в подростковом возрасте. – Москва: Просвещение, 2015. – 320 с.
13. Axrarova Sh.B. Psixologiya va pedagogikada fidoyilik sifatlarini rivojlantirish masalalari. Ilm sarchashmalari. 2026;(3):125–127.
14. CASEL. CASEL Framework for Social and Emotional Learning. Chicago: CASEL, 2024.
15. Goleman D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books.



16. Durlak J.A., Weissberg R.P. et al. The impact of enhancing students' social and emotional learning: A meta-analysis.
17. Batirovna, A. S. (2026). THE TRANSFORMATION OF PERSONAL NEEDS AND PATTERNS OF ALTRUISM DEVELOPMENT IN ADOLESCENCE. *BG pulse journal*, 2(6), 4277-4280.
18. Batirovna, A. S. (2026). THE HIERARCHY OF PERSONAL NEEDS AS A DETERMINANT OF THE FORMATION OF SELFLESSNESS IN ADOLESCENCE. *Arabian journal of science.*, 13(6), 2808-2810.
19. OECD. Beyond Academic Learning: First Results from the Survey on Social and Emotional Skills. Paris: OECD, 2021.

